



EXPANDS STUDENTS' CREATIVE THINKING THROUGH THE PISA ASSESSMENT PROGRAM

Kamshat Baymenova

QSU named after Berdakh
Assistant of the Department of Uzbek Language and Literature

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5449807>

ARTICLE INFO

Received: 25th August 2021
Accepted: 30th August 2021
Online: 05th September 2021

KEY WORDS

PISA, International
Research, Oral, Written,
Reading Literacy, Text

ABSTRACT

This article discusses how students work on texts to develop creative thinking skills based on the PISA assessment program. In particular, it is based on relevant texts that encourage students to think independently.

PISA BAHOLASH DASTURI ASOSIDA O'QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASH DOIRASINI KENGAYTIRISH USULLARI

Kamshat Baymenova

Berdaq nomidagi QDU
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi assistenti

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 25-avgust 2021
Ma'qullandi: 30- avgust 2021
Chop etildi: 05- sentabr 2021

KALIT SO'ZLAR

PISA, xalqaro tadqiqot,
og'zaki nutq, yozma nutq,
o'qish savodxonligi,matn

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'quvchilarning PISA baholash dasturi asosida kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga oid matnlar ustida ishlash haqida so'z yuritiladi. Xususan, o'quvchilar bilimini mustaqil fikrlashga chorlovchi tegishli matnlar asosida bayon qilingan.

Bugungi kunda ona tili darslarida og'zaki hamda yozma nutq ko'nikmasini shakllantirish ancha murakkab jarayon bo'lib, unda savodxonlik, ijodiylik, fikri aniq, qisqa va tushunarli tarzda bayon eta olish muhim sanaladi. O'quvchilarda mustaqil va

ijodiy fikrlash, yangi g'oyalar yaratuvchanligini shakllantirish hamda rivojlantirish davr talabidir. Chunki ijodiy fikrlash — yangi bilimlar, innovatsion g'oyalar tug'ilishining asosi hisoblanadi. Shuningdek, bugungi kun o'quvchisida



kreativ fikrlash qobiliyatining shakllanishi ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Kreativ ("create" - inglizcha "ijod qilish") - "aqliy ijodiylik", "yangi g'oyalarni yaratuvchi" demakdir. Ona tili va adabiyot ta'limida o'quvchining kreativ fikrlashini ta'minlash orqali yuqori saviyadagi nutqiy savodxonlik bilan bir qatorda tabiiy va aniq fanlarni oson va qulay o'zlashtirilishiga erishamiz. PISA tadqiqotlari doirasining ham o'ziga xos xususiyatlaridan biri ham 15 yoshli o'quvchilarning kreativ fikrlashini baholashidir. Demak, o'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmasini kichik sinflaridanoq shakllantirishimiz zarur. Bunda adabiyot darslarida badiiy asar o'rganilgach o'tkaziladigan didaktik tahlil jarayoni katta yordam beradi.

Darhaqiqat, xalqaro baholash o'z ichiga matn tarkibidan alohida olingan so'zning ma'nosini tushuntirishdan tortib, matnning fonetik, leksik, grammatik qurilishini anglash hamda matndan olingan tushunchaning o'zini hayotiy voqeahodisalar bilan bog'lay olish kabi qator aqliy faoliyat va til kompetensiyalarini qamrab oladi. O'qish savodxonligi orqali o'quvchi tushunish, foydalanish, mulohaza yuritish hamda munosabat bildirish kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi.

O'qish savodxonligi zaruriyatining asoslari quyidagilardan iborat:

- matn orqali o'quvchining tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish ko'nikmalari shakllanadi;
- o'quvchi matn tuzish texnikasini o'rganadi;
- o'quvchi matn lug'ati bilan ishlash jarayonida qanday so'zlardan foydalanish kerakligi, shu o'rinda aynan qanday so'z qo'llansa, o'rinni bo'lishini tushunadi;

- o'quvchi matndan savol berishni o'rganadi, aytilmoqchi bo'lgan asosiy fikrni anglab, uni qisqa va mazmunli jumlada aks ettirish ko'nikmasini shakllantiradi;
- lug'at bilan ishlash jarayonida o'quvchi o'zi uchun yangi bo'lgan so'zlar izohini o'rganadi, uning lug'at boyligi oshadi.

9-sinf o'zbek tili darsligida berilgan "Kasbning yaxshi-yomoni bo'lmas" mavzusidagi matni o'quvchilarni mantiqiy kreativ fikrlashga undovchi matn hisoblanadi. Dastlab matn o'qituvchi tomonidan o'qib beriladi yoki audio yozuv varianti tomonidan eshittiriladi, o'quvchilar matnni kuzatib boradilar. Bu orqali o'quvchilarning tinglab tushunish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Kasbning yaxshi-yomoni bo'lmas

Men 9-sinfda o'qiyman. Barcha tengdoshlarimning kasbga bo'lgan qiziqishlari turlicha. Kimdir tadbirkor, kimdir shifokor, yana birov bank xodimi, kimdir esa uchuvchi bo'lishni orzu qiladi. Xullas, orzularimiz bir dunyo.

Men yoshligimdan samolyotlarga juda qiziqaman.

O'zbek tili darsida o'qituvchimiz "Kim bo'lsam ekan?" mavzusida ijodiy ish yozib kelishimizni uyga vazifa qilib berdilar. Menga navbat kelganda ustozimiz yozganlarimga ko'z yugurtirib chiqdilar-da: - Qani, Bahodir, hammaga o'qib ber, - dedilar. Men ham baland ovozda o'qiy boshladim: "Men kelajakda mashina ta'mirlovchi usta bo'lmoqchiman..." Sinfda baravariga kulgi ko'tarildi. O'qishdan to'xtab qoldim.

- Nega kulyapsiz?-hayron bo'ldilar ustozimiz. - Agar bilsangiz, Bahodir



samimiy va chin dildan yozgan,-deya maqtadilar.

- Kasbning yaxshi-yomoni bo'lmaydi, orzuga ayb yo'q, ammo istak, xohishning o'zi kifoya qilmaydi. Har bir kasb egasi bo'lish uchun qanchadan qancha mehnat, izlanish, sabr-toqat va mahorat talab etiladi. "Intilganga tole yor", deyishadi. O'z maqsadingiz yo'lida hech vaqt adashmang, - deya so'zlarini tugatdilar.

Men chin ko'nglimdan o'zim yoqtirgan kasb haqida yozganimdan xursand edim.

O'quvchilarning gapirish malakarini shakllantirish uchun quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin:

1. Sinfda bolalar nega kulishdi?
2. O'qituvchi o'quvchilarga qanday topshiriq bergan edi?
3. O'qituvchi nega aynan Bahodir yozgan inshoni o'qittirdi?

Mantiqiy kreativ fikrlashga undovchi topshiriqlar:

1. "Kasbning yaxshi-yomoni bo'lmas" matniga mos kelmaydigan jumla qaysi qatorida berilgan?

- A) O'zbek tili darsida o'qituvchimiz "Kim bo'lsam ekan?" mavzusida ijodiy ish yozib kelishimizni uyga vazifa qilib berdilar
- B) Kasbning yaxshi-yomoni bo'lmaydi, orzuga ayb yo'q, ammo istak, xohishning o'zi kifoya qilmaydi
- C) "Intilganga tole yor", deyishadi. O'z maqsadingiz yo'lida hech vaqt adashmang
- D) * Men chin ko'nglimdan o'zim yoqtirgan kasb haqida yozganimda hamma kulganidan juda xafa edim**
- E) Kimdir tadbirkor, kimdir shifokor, yana birov bank xodimi, kimdir

esa uchuvchi bo'lishni orzu qiladi.

Xullas, orzularimiz bir dunyo

2. Fikrni davom ettiring: "Kasbning yaxshi-yomoni bo'lmaydi, orzuga ayb yo'q, ammo"
 - A) buning uchun faqat o'qish kerak
 - B) inson doim izlanishda bo'lishi kerak
 - C) har bir kasbning o'ziga xos mashaqqati bor
 - D) inson faqat orzu qilish bilan kifoyalanmaslik kerak
 - E) *istak, xohishning o'zi kifoya qilmaydi
3. Bahodirning sinfda hammaga o'qib bergan inshosi unga qanday ta'sir qildi?
 - A) Sinfdagilar baravariga kulganligidan ko'ngli ranjidi
 - B) *Chin ko'nglidan o'zi yoqtirgan kasb haqida yozganidan xursand bo'ldi
 - C) Kasbni xato tanlaganidan afsuslandi
 - D) Kelajakda mashina ta'mirlovchi bo'lishidan uyaldi
 - E) O'qituvchisi undan kechirim so'radi
4. Sizningcha o'qituvchi Bahodirning yozgan inshosini butun sinfga o'qittirib to'g'ri ish qildimi? Fikr mulohazalaringizni yozing.

5. Berilgan matnga siz qanday sarlavha qo'ygan bo'lardingiz?

6. "Intilganga tole yor" maqolini qanday tushunasiz?



7. Berilgan fikrlardan qaysi biri hikoya mazmuniga xulosani ifodalaydi.
- A) Kasbning yaxshi-yomoni bo'lmaydi, orzuga ayb yo'q
 - B) Har bir kasb egasi bo'lish uchun qanchadan qancha mehnat, izlanish, sabr-toqat va mahorat talab etiladi
 - C) Agar bilsangiz, Bahodir samimiy va chin dildan yozgan,-deya maqtadilar
 - D) *"Intilganga tole yor", deyishadi. O'z maqsadingiz yo'lida hech vaqt adashmang
 - E) Sinfda baravariga kulgi ko'tarildi. O'qishdan to'xtab qoldim.
8. Hikoya mazmuniga mos kelmaydigan maqol qaysi qatorida berilgan?
- A) Qunt bilan o'rgan hunar, Hunardan rizqing unar
 - B) Har kasbning o'z gashti bor
 - C) Har kimning kasbi o'ziga
 - D) Kasbning yomoni yo'q
 - E) *Qattiq baqirgan bilan qo'shiqchi bo'lmas

9. Berilgan maqollardan qaysilari hikoya mazmuniga mos keladi? (Ha yoki yo'q javobi orqali).
- A) Yigit husni-hunar
 - B) Kasb-kasb, tubi-nasib
 - C) Hunar ortsa ish unar
 - D) Ota hunari-bolaga meros
 - E) Hunar bir, pardozi-qirg
 - F) Hunar tagida hunar bor
 - G) Hunarli yigit – mevali daraxt
 - H) Hunarmandning noni butun
 - I) Aql ko'pga yetkazar, Hunar ko'kka
 - J) Ota kasbi-davlat kasbi

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, topshiriq talablariga o'quvchining shaxsiy yondashuvi vazifani bajarish jarayonida alohida o'rin egallaydi. O'qish maqsadining tuzilishi, o'quvchining qiziqishi, bilimidan kelib chiqib berilgan topshiriqlar muhim ahamiyat kasb etadi. PISA tadqiqotlarida o'qish savodxonligini baholashda nafaqat o'quvchilarning bajargan topshiriqlari, balki ularning tashqi muhit, hayotiy harakatlarni qabul qilish ko'nikmalariga egaligi ham inobatga olinadi.

References:

1. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi veb-sayti www.markaz.tdi.uz.
2. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash. Metodik qo'llanma. T-2019
3. PISA for development assessment and analytical framework: reading, mathematics and science © OECD 2018
4. Международный координационный центр исследования TIMSS – <http://timss2015.org/>.
5. A.B.Radjiyev, A.A.Ismailov, J.R.Narziyev, X.P.Tog'ayeva, «O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi», Qo'llanma, 2019-yil.